

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI FARG'ONA FILIALI

**"BOLALARDA MORFOFUNKTSIONAL  
O'ZGARISHLAR"**  
**moduli**


**1-MAVZU:**

---

**TAYANCH-HARAKAT APPARAT TIZIMI  
VA DISTROFIYASI**

*O'qituvchi: Matxoshimov Nodirjon Soyibjonovich*

# Reja:

- 
1. • Maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishining anatomo-fiziologik xususiyatlari.
  2. • Morfofunktsional o‘zgarishlar tushunchasi.
  3. Tayanch-harakat apparat tizimi va distrofiyasi.

# **Morfolokial o‘zgarishlar tushunchasi.**


**Morfologiya** - organizmning tashqi tuzilishini (shakli, tuzilishi, rangi), yoki uning tarkibiy qismlarini, shuningdek tirik organizmning ichki tuzilishini (anatomiya) o‘rganadigan fandir.

**Funksiya** - tirik organizmda fiziologik (fiziologiya) jarayon yoki jarayonlar majmui sifatida namoyon bo‘ladigan hujayra, organ va tana tizimining faoliyati tushuniladi.


Shuningdek, bolalar organizmining **morfolokial o‘zgarishlari** – ular organizmida turli yosh davrlarida, ayniqsa o‘sish va rivojlanish bosqichida kechadigan organizmning tashqi va ichki tuzilishini va uning tarkibiy qismlarini, shuningdek ularda ro‘y beradigan fiziologik jarayonlarning faoliyat mexanizmlari tushuniladi.

## Morfofunktional o‘zgarishlar tushunchasi.

Inson hayoti har xil yosh davrlariga xos bo‘lgan morfologik va funktsional hususiyatlarda aks ettirilgan ma’lum qonunlarga bo‘ysunib, o’sish va rivojlanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir.



# **Tayanch-harakat apparat tizimi. Umurtqa pog‘onasi, ko‘krak qafasi, bosh, qo‘l va oyoq skeleti va muskullari.**



Odamning tayanch-harakat apparat tizimi deganda undagi skelet, bo‘g‘imlar va muskullardan tashkil topgan majmua tushuniladi. Dastavval, bu tizim butun bir vujudning tayanchi va ichki a’zolarni (yurak, o‘pkalar, oshqozon-ichaklar, buyraklar, taloq va boshqalar) o‘rab turuvchi himoya qobig‘i hisoblanadi.

Suyak to‘qimalari shunday jips joylashganki, ular g‘ishtga nisbatan 30 barobar, granitga nisbatan esa 2,5 barobar mustahkam bo‘lib, odam son suyagi tik holatda 1,5 tonna yukni ko‘tarishga bardosh bera oladi. Suyak tarkibida 60% ma’danli moddalar, 30% organik moddalar va 10% suv bo‘ladi. Ma’danli moddalar kalsiy tuzlari, fosfor, magniy hamda qator mikroelementlar (alyuminiy, ftor, marganets, temir, kobalt va boshqalar) ko‘rinishida bo‘ladi. Odam tanasidagi kalsiy elementining 99% i suyaklarda bo‘ladi.




Organik moddalardan kollagen (tolasimon oqsillar), uglevodlar, nuklein kislotalar va boshqalar bo‘ladi. Ma’danli moddalar suyaklarga qattiqlik bersa, organik moddalar ularni egiluvchan qiladi. Bolalar suyaklari tarkibida organik moddalar anorganik moddalarga nisbatan ko‘p bo‘ladi, shuning uchun ular egiluvchan, elastik va shaklini oson o‘zgartiradigan (deformatsiyalanadigan) bo‘ladi.

Shuning uchun ham ularga davomli va og‘ir jismoniy yuklamalar berilishi suyaklarning shaklini o‘zgartirib, skeletning noto‘g‘ri o‘sishiga olib kelishi mumkin. Bolalarda suyaklar yoshga qarab o‘sib, rivojlanib boradi. Ularning bo‘yiga o‘sishi suyak uchlari bilan tanasi orasidagi tog‘ay hisobidan bo‘lsa, eniga o‘sishi suyak pardasining ichki yuzasidagi hujayralar hisobidan bo‘ladi.

# SKELET VA UNING QISMLARI

Skelet tananing asosini tashkil qilib, uning shakli va uzunligini belgilashda xal qiluvchi o‘rin tutadi. Odam skeletida **206** ta suyak: **85** ta **juft**, **36** ta **toq** suyak bo‘lib, har-xil uzunlikdagi (uzun, yassi, qisqa va aralash) suyaklar bo‘lib, ular erkaklarda tana vaznining 18%ini, ayollarda 16%ini va bolalarda esa 14%ini tashkil qiladi.


# SKELET VA UNING QISMLARI




Skelet 3 ta qismga  
bo'lib o'rganiladi:

- Gavda skeleti-**  
umurtqa pog'onasi,  
qovurg'alar va to'sh  
suyagi;
- Qo'l va oyoq skeleti**  
– yelka kamari va  
erkin qo'l suyaklari,  
chanoq va erkin oyoq  
suyaklari;
- Bosh skeleti-yuz va**  
miya qism suyaklari.

# Gavda skeleti (umurtqa pog‘onasi, qovurg‘alar, to‘sh suyagi)



Umurtqa pog‘onasi yuqorida bosh qutisi va pastdan chanoq suyaklari bilan birlashgan bo‘ladi. Umurtqa pog‘onasi umumiylana uzunligining 40% ini tashkil qilib, 24 ta erkin, alohida turuvchi (7 ta bo‘yin, 12 ta ko‘krak, 5 ta bel umurtqalari) va 9-10 ta birga qo‘shilib o‘sgan umurtqalardan (5 ta dumg‘aza, 4-5 ta dum) iborat. Umurtqalar orasida umurtqalararo disklar bo‘lib, ular umurtqa pog‘onasining harakatini yaxshilaydi.




Bolalarda 1,5 yoshgacha barcha umurtqalarning o‘sishi jadal bo‘lib, bir tekis bo‘lsa, 3 yoshlilarda bel umurtqalari bo‘yin va yuqori ko‘krak umurtqalariga nisbatan ancha tez o‘sadi. 7-9 yosh va balog‘atga yetish davrida ham umurtqa pog‘onasining o‘sishi jadallahib, keyin bu holat aytarlik sezilmaydi.

Bola tug‘ilganidan keyin tegishli vaqt o‘tishi bilan uning umurtqa pog‘onasida fiziologik egilmalar paydo bo‘la boshlaydi. Shulardan dastlabkisi bola boshini ushlab turadigan bo‘lganidan keyin bo‘yin qismida hosil bo‘ladi (bo‘yin lordozi), o‘tirishni o‘rgangan 6 oylik bolalarda ko‘krak egilmasi (ko‘krak kifozi) va nihoyat, bola tik turish va yurishni o‘rganishi bilan bel egilmasi (bel lordozi) yuzaga keladi.


Bu egilmalar odamning tik yurishi bois yuzaga kelgan bo‘lib, umurtqa pog‘onasiga prujina holatini beradi, ular tufayli yurish, chopish, sakrash harakatlarida olinadigan zARBALAR so‘ndiriladi va miya chayqalishdan saqlanadi.




# Umurtqa pog'onasi patologik egilmalari




LORDOZ



SKOLIOZ




NORMA




KIFOZ

# KO'KRAK QAFASI TUZILISHI

Ko'krak qafasi - bu ichki a'zolarni shikastlanish, qisilish yoki jarohatlardan himoya qiladi. Yurak, o'pka, o'pka arteriyalari va tomirlari, timus, bronxlar, qizilo'ngach va jigar ko'krak qafasida yashiringan. Unga nafas olish mushaklari va yuqori ekstremitalarning mushaklari biriktirilgan. Ko'krak qafasi oldingi to'shsuyagi, orqa tomonidan umurtqa pog'onasi va ikki yon tomonidan 12 juft qovurg'alardan iborat.



**Qo‘l skeletiga o‘mrov  
(12) va kurak (1)  
suyaklaridan iborat  
yelka kamari hamda  
yelka (2), bilak (4),  
tirsak (3) va panja (8)  
suyaklari: kaft usti (5),  
kaft (6), barmoq (7)  
suyaklaridan tashkil  
topgan erkin qo‘l  
qismi kiradi.**



**Oyoq skeleti chanoq qismi (1) va oyoqning erkin suyaklaridan iborat.** Oyoqning erkin suyaklari son (12), katta (4) va kichik (3) bolder, tizza qopqog‘i (2) hamda oyoq panja (8) suyaklaridan iborat. Oyoq panja suyaklari o‘z navbatida kaft usti (5), kaft (6) va panja (7) suyaklaridan tashkil topgan. Oyoq panja suyaklari gumbaz hosil qilib, u tovon suyagi hamda kaft suyaklarining oldingi qismiga tayanib turadi. Odamning tik yurishi ko‘ndalang gumbaz hosil bo‘lishiga olib kelib, tana og‘irligining bir tekisda tushib turishini ta’minlaydi.



# OYOQ SKELETI QIYSHIQLIGI

Norma



Raxit




## Bosh skeleti

Bosh skeleti miya va yuz qismlaridan iborat. Yangi tug‘ilgan bolalarda ushbu qismlar nisbati katta odamlarnikidan tubdan farq qiladi, ya’ni ularda miya qismining yuz qismiga nisbati 6:1 ni tashkil qilsa, bu ko‘rsatkich katta odamlarda 2,5:1 ni tashkil qiladi. Bola tug‘ilganidan keyin bosh skeleti o‘sib boradi va bunday o‘sish, ayniqsa, bir yoshli bolalarda va balog‘atga yetish davrida jadallahashadi.


Yangi tug‘ilgan bolalarda bosh suyaklari bir-biri bilan qo‘shiluvchi yumshoq parda orqali bog‘langan bo‘ladi. Bir necha bosh suyaklari tutashgan joyda bu parda yaqqol ko‘rinib turadi va ular miya liqildoqlari deyiladi. Ular tufayli bola tug‘ilishida bosh suyaklari siqilib, kalla nisbatan kichrayadi va jarayon osonlashadi. Bunday liqildoqlar 2-3 oy ichida bitib boradi va ulardan faqat peshona liqildog‘i (eng kattasi) 1,5 yoshga borib bitadi.

# Chaqaloq bolanining kalla suyagi




A-yon tomondan ko`rinishi; B-yuqoridan ko`rinishi;  
1 – peshona liqindog`l; 2 – ensa liqildg`l; 3- yon liqildoqlar

# BOSH SKELETI QISMLARI




# BOSH SKELETI QISMLARI



**Odam tanasida suyaklar o‘zaro  
bo‘g‘imlar vositasida birlashadi.**

**Bo‘g‘imlarning turlari:**

1. Ikki suyakning birlashuvidan hosil bo‘lgan bo‘g‘imlar - oddiybo‘g‘imlar - articulatio sim’lex deyiladi.
2. Uch va undan ortiq suyaklarning birikishidan hosil bo‘lgan bo‘g‘imlar - murakkab bo‘g‘imlar - art. com’osita - deyiladi.
3. Bo‘g‘im bo‘shlig‘ining ichida tog‘ay plastinkasi bo‘lsa, bunday birlashmalarga kompleks bo‘g‘imlar - art. com’lexa deyiladi.
4. Anatomik jihatidan alohida, lekin vazifasiga nisbata umumiyligi bo‘lgan bo‘g‘imlar guruhiga kombinirlangan (hamkor) bo‘g‘imla deyiladi. Ikkita anatomik alohida bo‘lgan chakka - pastki jag‘ bo‘g‘imlari, vazifasiga nisbatan o‘zaro hamkor bo‘lganligidan - kombinirlangan bo‘g‘imlar guruhiga misol bo‘la oladi.



## Muskullar tuzilishi

Tana muskullari orqa, ko'krak va qorin muskullaridan iborat. Orqa muskullar yuza va chuqur bo'ladi. Ular kurakni ko'taradi, uni yaqinlashtiradi va yopishtiradi, bo'yinni yozadi, yelka va qo'lni orqaga va ichkariga tortadi, nafas olish va chiqarishda qatnashadi. Orqaning chuqur muskullari umurtqa pog'onasini tiklaydi.

Ko'krak muskullari xususiy tashqi va ichki qovurg'alararo muskullar, yelka kamari va qo'l bilan bog'langan katta va kichik ko'krak muskullar, o'mrov usti va oldingi tishsimon muskullarga bo'linadi. Tashqari qovurg'alararo muskullar qovurg'alarni ko'taradi, ichki muskullar esa nafas olish va chiqarishda ishtirok etadi.


Qorin muskullari tashqi va ichki qiyshiq muskullar, qorinning ko'ndalang va to'g'ri muskullari, shuningdek, belning kvadrat muskulidan tashkil topgan. Qorin muskullari to'g'ri tanani oldinga bukadi, qiyshiq muskullar yon tomonlarga egilishini ta'minlaydi. Bu muskullar qorin pressini tashkil etib, asosiy funksiyasi qorin a'zolarini funksional qulay holatda ushlab turishdan iborat. Bundan tashqari, qorin pressi muskullarining qisqarishi siyish, ichak bo'shashi, tug'ish jarayonlarini ta'minlaydi.

Odam organizmida 600 dan ortiq muskul bo'lib, katta yoshli odam tanasi vaznining 45–50% ni tashkil qiladi.

# TANA MUSKULLARI



# JOYLASHISHI VA VAZIFASIGA KO'RA MUSKUL TURLARI




- **Skelet muskullarining shakli.**
- A- duksimon; B- yarim patsimon; C- ikki tomonlama patsimon; G- ikki boshli muskul; D- serbar muskul; E- ikki qorinli muskul; J- parallel tolali uzon muskul; 1- muskulning payi; 2- muskulning bosh qismi; 3- muskulning qorin qismi; 4- muskulning tanasi; 5- muskulning payli belbog'lari.

# MUSKULLARNING RIVOJLANISHI


Bola tug‘ilganda barcha muskullari mayda va rivojlanmagan bo‘ladi. Ular bolaning hayoti davomida rivojlnana borib, 25 yoshda to‘liq shakllanadi. Muskullarning rivojlanishi skeletining taraqqiy etishiga va bola qad-qomatining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Yangi tug‘ilgan bola muskullarining vazni tanasi vaznining 23,3% ni, 8 yoshda – 27,2% ni, 12 yoshda – 29,4% ni, 15 yoshda – 32,6% ni, 18 yoshda – 44,2% ni tashkil etadi. Bir yoshda yelka kamari, qo‘l muskullari yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Bola yura boshlashi bilan orqadagi uzun muskullar, dumba muskullari tez usadi, 6–7 yoshdan boshlab qo‘l panjasining muskullari tez rivojlanadi. Bolalarda bukuvchi muskullarning tarangligi yuqoriroq bo‘lib, yozuvchi muskullarga nisbatan tez rivojlanadi. 12–16 yoshda yurish-turish uchun zarur muskullar rivojlanadi. Yosh ortib borishi bilan muskullarning ximiyaviy tarkibi, tuzilishi ham o‘zgaradi. Bolalar muskulida suv ko‘p bo‘ladi. Muskullarning rivojlanishi bilan ulardagi qon tomirlar va nerv tolalari soni ortadi. Umuman, katta odamlarda 50 yoshdan boshlab muskullar suet rivojlanadi. Keksayganda vazni 15–20% kamayadi.

Tashqi muhitda turli omillarning sezgi organlariga ta’siri natijasida muskullar qisqaradi. Bu impulslar nerv sistemasining normal faoliyatini saqlab turadi, boshqacha aytganda, skelet muskullarining uyg‘unlashgan harakatini vujudga keltiradi.

## Muskullar tuzilishi




1



2

**Muskul to‘qimasining tuzilishi: 1-silliq muskul;  
2-ko‘ndalang-targ‘il muskul.**

**Tana tuzilishi** – bu gavda o‘lchovlarining shakllanishlari, mutanosibliklari, tana qismlarining bir-biriga nisbatan joylashishi, suyak, yog‘ va muskul to‘qimalarining rivojlanish hususiyatlari bo‘lib, odam konstitutsiyasini uch turga: *astenik*, *normostenik* va *giperstenik* turlarga bo‘ladi.



Астеник


Нормостеник

Гиперстеник


# TANA TUZILISHI

Tana tuzilishi va tayanch-harakat apparatining holati-shaxsni qaysi sport turi bilan shug‘illanishi mumkinligini tanlashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.


**ЭКТОМОРФ**



**МЕЗОМОРФ**



**ЭНДОМОРФ**



*E'TIBORINGIZ UCHUN  
TASHAKKUR!*